



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Olimjon G‘ayrat o‘g‘li Fattoyev Peculiarities of stock market development	157
Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev, Omonilla Saydaminovich Umarov Transformatsion davlatda iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi omillar	160
Рохила Баходир қизи Азизова Заргарлик хизматларини кўрсатишда маркетинг стратегияларидан фойдаланиш	163
Shahnoza Abdirashitovna Po‘latova Global iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar va yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishning dolzarb masalalari	169
Xilola Nematovna Ochilova O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari	173
Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Operatsion faoliyat, uni boshqarish va yangi tendensiyalar	178
Bezodjon Oblakulov, Mekhrusa Vafokulova Marketing analysis of international brand in the case of “Chartak mineral water jv ltd”	182
ИНВЕСТИЦИЯ	
Заррух Умарович Мухаммадиев Иқтисодиётнинг ривожланишида капитал инвестицияларнинг роли ва аҳамияти	186
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Жахонгир Расулович Зайналов Проблемы налогообложения прибыли инновационных предприятий	192
Xusnora Dilmurod qizi Umarova Kuchli raqobat sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari	196
Abdusamat Abdusaitovich Mamanazarov Bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish	199
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Mamurjon Avazxon o‘g‘li Abdivoxidov Xizmat ko‘rsatish sohasini samarali rivojlantirish yo‘llari	206
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Jaxongir Baxtiyorovich Quljanov, Shaxnoza Ergashevna Samandarova Katta sonlar qonuni va markov teoremasi	213
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Мамлакатимизда маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш соҳасини янги босқичга олиб чиқиш, ёшларни ўз атрофига жалб этадиган лойиҳа ва ташаббусларга оид айрим таклиф ва тавсиялар	216
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Бола тарбияси	218

2. P. Appelt, T. Hauser. Marketing Innovation: prescribing innovations: a practical framework for effective marketing of medical device innovations. 6 (2006), pp. 195-202
3. V.Chistov, N.Aramburu, J.Carrillo-Hermosilla. Open eco-innovation: a bibliometric review of emerging research J. Clean. Prod., 311 (2021), p. 127627, 10.1016/j.jclepro.2021.127627. View PDFView articleView in ScopusGoogle Scholar
4. F.W.Geels, A.McMeekin, J.Mylan, D.Southern. A critical appraisal of Sustainable Consumption and Production research: the reformist, revolutionary and reconfiguration positions. Global Environ. Change, 34 (2015), pp.1-12.
5. H. Karjaluoto, V.L.Vaccaro. B2B green marketing and innovation theory for competitive advantage. J. Syst. Inf. Technol., 11 (2009), pp. 315-330
6. M.M. Mostafa. Gender differences in Egyptian consumers' green purchase behaviour: the effects of environmental knowledge, concern and attitude. Int. J. Consum. Stud., 31 (2007), pp. 220-229
7. R.-J. Lin, K.-H. Tan, Y.Geng. Market demand, green product innovation, and firm performance: evidence from Vietnam motorcycle industry. J. Clean. Prod., 40 (2013), pp. 101-107
8. D.C. Roach, J. Ryman, J. White. Culture, conduct and innovation: a deconstruction of market orientation J. Res. Mark. Entrep., 16 (2014), pp. 128-145
9. S.Seifi, N.Zulkifli, R.Yusuff, S.Sullaiman. Information requirements for sustainable consumption. Soc. Responsib. J., 8 (2012), pp. 433-441.

Ш.Пулатова	Sh.Pulatova
Актуальные вопросы использования инноваций и концепции зеленого маркетинга в глобальной экономике	Current issues of using innovations and the concept of green marketing in the global economy
<p>Аннотация. В данной статье на примере развитых стран представлены важные актуальные вопросы создания зеленого маркетинга и экоинноваций в период ресурсного кризиса в условиях глобализации. Разработаны предложения и рекомендации по использованию концепции зеленого маркетинга в нашей стране.</p> <p>Ключевые слова: зеленый маркетинг, инновации в области зеленого маркетинга, инновации в маркетинге, устойчивое потребление, зеленая сертификация, зеленый продукт, экологические покупки, стратегия зеленого продукта.</p>	<p>Abstract. In this article, using the example of developed countries, important current issues of creating green marketing and eco-innovations during the resource crisis in the context of globalization are presented. Proposals and recommendations for using the concept of green marketing in our country are developed.</p> <p>Keywords: green marketing, green marketing innovation, marketing innovation, sustainable consumption, green certification, green product, green purchase, green product strategy.</p>

Xilola Nematovna Ochilova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Menejment” kafedrasida dosenti v.b., PhD

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<p>Annotasiya. Maqolada O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari qarab chiqilgan. Bunda ta’lim tizimini boshqarishning xususiyatlari bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan. Bunda oliy ta’lim boshqaruvining nazariy masalalari yoritilib, boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: ta’lim, oliy ta’lim, menejment, boshqaruv, boshqaruv xususiyatlari, boshqaruv tavsifi, ta’lim sifati, pedagog mahorati.</p>
--

Kirish. Mamlakatimizning kelajagi, millat ravnaqi bevosita ta’limning darajasiga bog‘liq. Shu tufayli mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishga juda katta ahamiyat qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, eng ulug‘ dargoh ta’lim dargohi bo‘lsa, eng ulug‘ kasb pedagog kasbidir. Bularni inobatga olib, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2019 yil 9 oktyabrda

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga imzo chekdi¹. Ushbu Konsepsiya 4 bobdan iborat bo‘lib, bunda quyidagilar o‘z aksini topgan. Umumiy qoidalar, hozirgi kunda respublikamizdagi oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari va kelajakda Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalardan iborat.

Oliy ta’limning asosiy vazifasi – bu O‘zbekistonning ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish masalalarini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ilmiy, iqtidorli, ma’naviy, madaniy va ahloqiy sifatlarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Bularndan ko‘rinib turibdiki, avvalom bor, mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uchun yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Shu tufayli oliy ta’limning birinchi galdagi ustuvor vazifasi ta’lim sifatini muttasil oshirib borish va yangi talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash tizimini amaliyotga joriy qilishdan iborat bo‘lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun oliy ta’limda malakali pedagog-xodimlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarurdir. Bunga erishish uchun boshqaruv tizimini ham takomillashtirish lozim bo‘lmoqda.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng davlatimizning iqtisodiy hayoti o‘nglanib, dunyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuv jarayoni tezlashdi. Bularning hammasi, tezkor o‘zgarayotgan bugungi kunda insonlarda yangicha fikrlashni, zamonaga tezlikda moslashishni talab qilmoqda. Har birimiz bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotiga mos qonuniyatlarning nazariy va amaliy jihatlari o‘zlashtirgan holda, shunga mos ravishda harakatlanishimiz zarur bo‘lmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy bilimlarning muhim tarkibiy qismi boshqaruvning ilmiy asoslaridir. Chunki, boshqaruv inson tafakkurini charxlaydi, chuqur mushohada qilishga undaydi va shu yo‘l bilan shaxsning yaratuvchilik imkoniyatlari va qirralari ochiladi. Natijada insonda jarayonlarga nisbatan ijodiy qobiliyatni namoyon etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy ta’lim tizimi boshqarishni takomillashtirishga oid masalalar bilan mamlakatimiz olimlari tomonidan S.S.G‘ulomov, A.T.Shermuhamedovlar², M.A.Ikromov³, M.Q.Pardayev⁴, Q.X.Abduraxmonov, Sh.R.Xolmo‘minov, N.Q.Zokirova⁵ kabilar shug‘ullanib kelmoqdalar. Ushbu mualliflar tomonidan bir qancha adabiyotlar va ilmiy maqolalar nashr qilingan. Unda asosan ta’lim tizimini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyot, raqamli ta’limni joriy qilish, personalni boshqarish kabi masalalar yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Mavzu doirasida kelib chiqib endi boshqaruv so‘zi haqida olimlarimizning qarashlariga to‘xtalib o‘tsak.

“Boshqaruv – bu o‘ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir” deydi akademik M.Sharifxujayev va Yo.Abdullayevlar o‘z asarlarida.⁶

Q.X.Abduraxmonov, Sh.R.Xolmo‘minov, N.Q.Zokirovalar esa “Personalni boshqarish” nomli darsligida “Menejment aslida “boshqaruv” so‘zining sinonimi hisoblanib, asosan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni anglatadi” degan fikrni bildirgan.⁷

¹ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

² . Фуломов С.С., Шермухаммедов А.Т. Развитие цифрового маркетинга в Узбекистане. // “Ўзбекистонда ҳаракатлар стратегияси самарадорлигини оширишда маркетинг концепцияларидан фойдаланиш муаммолари” мавзусида ХИАК материаллари тўплами. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти. 2019. – 24-29 бетлар.

³ Икромов М.А., Шермухаммедов А.Т. Цифровой товар: стратегии производителей и продавцов. // “Ўзбекистонда ҳаракатлар стратегияси самарадорлигини оширишда маркетинг концепцияларидан фойдаланиш муаммолари” мавзусида ХИАК материаллари тўплами. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти. 2019. – 100-103 бетлар.,

⁴ Пардаев М.Қ. Рақамли иқтисодиётнинг таърифи, мақсади, ижобий ва салбий томонлари. // “Сервис” илмий-амалий журнали. 2019 1-сон. – 5 бет., Пардаева ва бошқалар. Таълим хизматлари ва уларнинг самарадорлигини ошириш масалалари. Монография. – Т.: “инновацион ривожланиш нашриёт-мағбаа уйи”, 2020. – 260 бет.

⁵ Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.Қ. Персонални бошқариш. Дарслик. Т., “Ўқитувчи” НМИУ, 2008. – 656-бет.

⁶ Sharifxujayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2001. – 5 bet.

⁷ Abduraxmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. T., “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 8 bet.

Bulardan kelib chiqib, boshqaruv deganda biror-bir xo‘jalik yurituvchi subyektning, ya‘ni tashkilot, korxonalar, firma va boshqalarning maqsadini aniqlash, hamda unga erishish uchun zarur bo‘lgan barcha choralarni ko‘rishga qaratilgan dasturlar, rejalarni ishlab chiqish tushuniladi. Bunda rejalashtirish, ishni tashkil etish, xodimlar faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish, ularni nazorat qilish va rag‘batlantirish jarayonlarini qanchalik foyda keltirishi, samara berishi nuqtayi nazaridan qarash lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, faoliyat yo‘nalishini to‘g‘ri tanlay bilishiga, qarorlar qabul qila olishga hamda uning bajarilishini nazorat qilishga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek oliy ta‘lim tizimida ham boshqaruv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim tizimida asosan malakali kadrlar tayyorlanadi;
- ta‘lim sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar o‘quv bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug‘ullanadi;
- ta‘lim tizimida nazariya va amaliyot birga olib boriladi;
- ta‘lim tizimida ishlab chiqarilgan mahsuloti inson kapitali bo‘lib hisoblanadi va shu kabilardir.

“Ta‘lim to‘g‘risidagi” qonunning 3 bob 28 moddasida ta‘kidlanganidek, “Ta‘lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta‘lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin” deyilgan. Shunday ekan, oliy ta‘lim muassasasini rektorlar boshqaradi. Oliy ta‘lim muassasalari rektorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolati bilan davlat oliy ta‘lim muassasalari rektorlarini, shuningdek davlat ishtirokida tashkil etiladigan oliy ta‘lim tashkilotlari (davlat ulushi bo‘lgan nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlari, qo‘shma ta‘lim muassasalari, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan ta‘lim muassasalari va boshqalar) rektorlarini (rahbarlarini) lavozimga tayinlaydi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etadi.¹

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun 21 moddadan iborat bo‘lib unda quyidagilar belgilab qo‘yilgan:

- pedagogning maqomi to‘g‘risidagi qonunchilik;
- ushbu qonunning qo‘llanilish sohasi;
- pedagogning maqomi;
- murabbiylik;
- pedagogning kasbiy faoliyati amalga oshirilishini ta‘minlash;
- pedagogning huquqlari;
- pedagogning majburiyatlari;
- pedagogik etika qoidalari;
- pedagoglarni tayyorlash;
- pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- pedagoglarning attestatsiyasi va malaka toifalari;
- pedagogning mehnatiga haq to‘lash;
- pedagoglarni rag‘batlantirish;
- pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish;
- pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga oid cheklovlar;
- nizolarni hal etish;
- pedagogning maqomi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik;
- o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish;
- ushbu qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta‘minlash;
- qonunchilikni ushbu qonunga muvofiqlashtirish;
- ushbu qonunning kuchga kirishi.

Ushbu Qonunning 5-moddasida “Pedagogning kasbiy faoliyati amalga oshirilishini ta‘minlash”ga bag‘ishlanib unda quyidagilar belgilab qo‘yilgan:

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/5013007>

O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risidagi qonunchi-ligiga asosan ish beruvchi pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Quyidagilar taqiqlanadi:

pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta‘lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta‘sir ko‘rsatish, shuningdek unga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilish;

pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish;

pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni va boshqa ma‘lumotlarni, shu jumladan aholining soliqlar, kommunal to‘lovlar, kreditlar va boshqa qarzdorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, bitiruvchilarning bandligi ta‘minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish;

pedagogni ishga joylashtirilmagan, ta‘lim bilan qamrab olinmagan va profilaktika hisobida turgan voyaga yetmaganlar hisobini yuritish hamda ularning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish ishlariga jalb etish;

pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan ish haqidan uning yozma roziligisiz tovar va xizmatlar uchun mablag‘ ushlab qolish.

Davlat umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar davlat tomonidan o‘quv qo‘llanmalar bilan bepul ta‘minlanadi.

Davlat ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar ta‘lim jarayonida foydalanadigan birlamchi o‘quv-uslubiy materiallar va o‘quv qurollari bilan davlat tomonidan bepul ta‘minlanadi.

Pedagogni uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarga (saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarida ishtirok etishga, test sinovlarida auditoriya nazoratchisi vazifasini bajarish, aholini ro‘yxatga olish ishlarida ko‘maklashishga, ta‘lim tashkilotlarini tekshirish hamda attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarida ekspert sifatida ishtirok etishga va boshqalarga) jalb qilish uning roziligiga ko‘ra, u bilan tuzilgan shartnomaga asosan, qo‘shimcha haq to‘lash evaziga, ishdan bo‘sh vaqtida yoki ish joyi bo‘yicha o‘rtacha ish haqi saqlangan holda amalga oshiriladi. Pedagogni biron-bir shaklda mehnatga ma‘muriy tarzda majburlash, shuningdek pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari hozirgi kunda oliy ta‘lim tizimida rahbar xodimlar tarkibiga prorektorlar, dekanlar, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari va shu kabilarni kiritish mumkin. Prorektorlar o‘z yo‘nalishi bo‘yicha institutni boshqarishda rektorga yordam beradi. Dekanlar o‘zi boshqarayotgan fakultetiga qarashli bo‘lgan kafedralar va guruhlarini boshqaradi. Kafedra mudirlari esa o‘ziga tegishli kafedra faoliyatini va kafedra professor-o‘qituvchilarini boshqaradi. Bo‘lim boshliqlari esa bo‘limiga qarashli xodimlarni va yo‘nalishini boshqaradi. Bundan tashqari, oliy ta‘lim tizimida ishlayotgan har bir professor-o‘qituvchi o‘ziga va o‘quvchilariga rahbar bo‘lishi lozim. Chunki u auditoriyaga kirganda auditoriyani boshqarishga to‘g‘ri keladi. Auditoriyada 20 ta talaba bo‘lsa, professor-o‘qituvchining 20 xil yondoshuvi bo‘lishi talab etiladi. Ana shunday yondoshilsagina, oliy ma‘lumotli kadrlar o‘z sohasida rahbarlik qila olishi mumkin. Professor-o‘qituvchilar ta‘lim jarayonida nafaqat o‘qitish orqali, balki o‘rnak bo‘lish orqali talabalarni tarbiyalab ham borishi lozimdir.

Oliy ta‘lim tizimidagi boshqaruv bilan shug‘ullanuvchi shaxslar yuksak darajadagi mas‘uliyatlilik, vakolatlilik hamda tartib-intizom bilan bog‘liq ma‘muriy qoidalarini ichki va tashqi vositalar yordamida muntazam samarali baholash qobiliyatiga xos bo‘lishi lozim. Agar ta‘lim sohasida samarali boshqaruv bo‘lmasa, rejalashtirish, tashkil qilish, tarbiyalash, mohiyatlash, nazorat qilish va motivlashtirish vazifasini samarali amalga oshirish mumkin bo‘lmasligi tabiiy.

Oliy ta‘lim muassasalarini boshqarish samarali bo‘lishi uchun o‘quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan talabalar, professor-o‘qituvchilar tarkibi, o‘quv-yordamchi xodimlar, soha va ma‘muriyat xodimlari va boshqalarning manfaatlari uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim. Ammo bunday manfaatlarning rang-barangligi, tabiiyki, ularni boshqarishning tegishli

tamoyillarini tanlashni talab qiladi. Shu tufayli har bir shaxsni boshqarishda turli usullardan foydalaniladi. Bu esa boshqaruvchining mahorati, saviyasi va salohiyatiga bog‘liq.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizning oliy ta‘lim sohasida pedagog-xodimlarni boshqarishni takomillashtirishning nazariy masalalarini tadqiq qilib bir qancha xulosalarga kelindi.

Birinchidan, O‘zbekistonda oliy ta‘lim sohasini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Unda mamlakatimizda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda milliy iftixor va o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, o‘z xalqining tarixi hamda madaniyatini hurmat qilish fazilatlarini shakllantirish kelajakka qaratilgan ushbu ulkan ishlarning muhim tarkibiy qismi ekanligi asoslandi. Ushbu xayrli ishlar doirasida yoshlarning bir vaqtning o‘zida kasb ko‘nikmasi va insoniy fazilatlarini rivojlantirish uchun juda ko‘p tadbirlar amalga oshirilayotganligi va ularni takomillashtirgan holda bardavom qilish lozimligi qayd etilgan.

Ikkinchidan, shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda ta‘limni takomillashtirish borasida olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar mamlakatimizda barcha aholini ayniqsa, bolalarga yetarli darajada sharoit yaratib berish va ularning baxtli hayotini ta‘minlash uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishga doir ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilganligi va ulardan samarali foydalanish lozimligi ham ko‘rsatib berilgan.

Uchinchidan, xalqimiz azaldan ilm va ma‘rifatga intilib yashaganligi tufayli istiqlol yillarida ushbu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida qaralganligi, uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlarini takomillashtirish va sifat bosqichiga o‘tkazishga harakat qilib kelinayotganligi va unga bosqichma-bosqich erishilib kelinayotganligi ko‘rsatib berilgan.

To‘rtinchidan, hozirgi kunga avlod jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalash va ularning bilim olishi bo‘yicha belgilangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatimizda aholining nafaqat farovon hayotini, yashash darajasi va sifatini oshirish, balki uning buyuk kelajagini ta‘minlashning muhim omili ekanligi ham ko‘rsatib berilgan.

Oliy ta‘lim sohasidagi boshqaruv bilan shug‘ullanuvchi shaxslar yuksak darajadagi mas‘uliyatlilik, vakolatlilik hamda tartib-intizom bilan bog‘liq ma‘muriy qoidalarni ichki va tashqi vositalar yordamida muntazam samarali baholash qobiliyatiga xos bo‘lishi lozim. Agar samarali boshqaruv bo‘lmasa, rejalashtirish, tashkil qilish, tarbiyalash, mohiyatlash va nazorat qilish vazifasini samarali amalga oshirish mumkin bo‘lmasligi tabiiy.

Oliy ta‘lim muassasalarini boshqarish samarali bo‘lishi uchun o‘quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan talabalar, professor-o‘qituvchilar tarkibi, o‘quv-yordamchi xodimlar, soha va ma‘muriyat xodimlari va boshqalarning manfaatlari uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim. Ammo bunday manfaatlarning rang-barangligi, tabiiyki, ularni boshqarishning tegishli tamoyillarini tanlashni talab qiladi. Shu tufayli har bir shaxsni boshqarishda turli usullardan foydalaniladi. Bu esa boshqaruvchining mahorati, saviyasi va salohiyatiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta‘lim tizimini boshqarishni o‘rganish bugungi kunda o‘ta dolzarb masalalardan biri sifatida maydonga chiqqanligi, chunki jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri intellektual mulk (bilim va bilimdon kadrlar) ekanligiga hamma iqror bo‘lib, shu sohani rivojlantirishga katta ahamiyat berilayotganligi ham bejiz emasligi ko‘rsatib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
3. To‘ychiyev Sh., Pardayev M.Q. Xizmatlar sohasi menejmenti. O‘quv qo‘llanma. “Samarqand, “Turon-nashr”, 2020-yil. – 352 bet.
4. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2001. – 5 bet.
5. Pardayev M.Q va boshqalar. Boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.
6. Pardayev M.Q. Lederlik. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand, SamISI, 2015. - 56 bet.

<p>Х.Очилова</p> <p>Особенности управления системой высшего образования в Узбекистане</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются особенности управления системой высшего образования в Узбекистане. При этом были изучены вопросы, связанные с особенностями управления системой образования. Освещены теоретические вопросы управления высшим образованием, разработаны выводы и предложения по особенностям управления.</p> <p>Ключевые слова: образование, высшее образование, менеджмент, управление, особенности управления, характеристика управления, качество образования, педагогическое мастерство.</p>	<p>Kh.Ochilova</p> <p>Peculiarities of higher education system management in Uzbekistan</p> <p>Abstract. The article examines the features of the management of the higher education system in Uzbekistan. At the same time, issues related to the features of the management of the education system were studied. Theoretical issues of higher education management are covered, conclusions and proposals on the features of management are developed.</p> <p>Keywords: education, higher education, management, control, management features, management characteristics, quality of education, pedagogical skills.</p>
---	---

Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov – NamMTI, “Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

OPERATION FAOLIYAT, UNI BOSHQARISH VA YANGI TENDENSIYALAR

<p>Annotatsiya. Korxonalarining samaradorligi – korxonada faoliyatida amalga oshiriladigan operatsiyalarni to‘g‘ri bajarilishi va oqilona boshqarilishiga bevosita bog‘liq. Operatsion menejment – bu mahsulot va xizmatlarning asosiy turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan biznes jarayonlarini tashkil qilish, ulardan foydalanish va takomillashtirish faoliyatidir. Maqolada operatsion jarayonlar va ularning mohiyati, turli yondashuvlar, sohada ayrim muammolar o‘z aksini topgan. Shuningdek, sohani rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tegishli tavsiyalar berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: operatsiyalar, resurslar, moddiy resurslar, investitsiyalar, operatsion faoliyat, globallashtirish, ishlab chiqarish strategiyalari, sifat menejmenti, ishlab chiqarish zanjiridagi hamkorlik, ishlab chiqarishda moslashuvchanlik, individual ehtiyojlarini qondirish, vakolatni topshirilishi.</p>

Kirish. Ishlab chiqarishning asosi bo‘lib – bu korxonada xodimlari va mijozlari uchun muhim bo‘lgan operatsiyalarni boshqarishni tashkil etishning samaradorligi hisoblanadi. Operatsiyalar resurslarni qayta ishlab mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq inson faoliyatining har qanday turi sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish tizimi deyilganda ishlab chiqarish omillarini tanlangan mahsulot yoki xizmatlarga aylantirish uchun operatsion resurslardan foydalanadigan tizim tushuniladi. Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati uchta faoliyat turi bo‘yicha qabul qilingan samarali boshqaruv qarorlarini amalga oshirish natijasiga: investitsiyalar - birinchi navbatda, asosiy vositalarni yangilashga; moliyaviy - korxonani moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashga va asosiy operatsion faoliyatga ya‘ni, mahsulot ishlab chiqarish va sotish (xizmatlar ko‘rsatish)ga bog‘liq.

Operativ faoliyatni oqilona boshqarish nafaqat taktik qarorlar qabul qilishni, balki aniq strategiyani amalga oshirishni ham talab qiladi. Biroq, bugungi kunda sanoat korxonasi miqdoriy ko‘rsatkichlariga asoslangan va korxonaning asosiy faoliyatiga, shuningdek, uning hayot siklining bosqichiga mos keladigan samarali faoliyatni boshqarishni shakllantirish va amalga oshirish uchun nazariy asoslar yetarli emas. Ushbu sohaga oid mavjud masalalarni ilmiy-amaliy yechimini topish mavzuni dolzarbligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda korxonada faoliyatining har xil turlari mualliflar tomonidan tasodifiy tartibda, hech qanday izchil tizimlashtirilmagan holda bayon etiladi. Sanoat korxonasi faoliyati nomlari joriy, operatsion va asosiy faoliyat kabi sinonimdir, ba‘zi ta‘riflarning kontekstlarida faoliyatning ayrim turlari kengroq va torroq bo‘lgan tushunchalarni o‘z ichiga olib har xil talqin qilinadi.

V.F.Paliyning ta‘rifiga ko‘ra, operatsion faoliyat tashkilotni asosiy daromad va asosiy pul oqimlari bilan ta‘minlaydi¹. A.E.Abramov esa, operatsion faoliyat tanlangan bozor sektoridagi

¹ Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник. – 3-е изд., испр. и доп. / В.Ф. Палий. – 178

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.